EKSPORT FAOLIYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	838
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	841
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi Farxodova Shohnoza Umidbek qizi	
O'ZBEKISTON HAVO TRANSPORTI TIZIMINING JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'RNINI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	850
Azimova Moxinur Nozimovna	

BANK-MOLIYA TIZIMI VA XUSUSIY SEKTORNI RIVOJLANTIRISHDA YANGI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA BANK FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Norov Akmal Ruzimamatovich

TDIU Bank ishi kafedrası professori., DSc., professor

Annotatsiya: Maqolada bank-moliya tizimi hamda xususiy sektorni rivojlantirish jarayonida yangi texnologiyalar orqali faoliyatni raqamlashtirishning nazariy asoslari, uning shakllari va o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonida uchrayotgan muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish hamda tizimni takomillashtirishga doir amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yangi texnologiyalar, tijorat bank, raqamlashtirish, raqamli texnologiya, bank faoliyati, daromadlilik ko'rsatkichlari.

Abstract: The article reveals the theoretical foundations of digitalization of activities in the process of developing the banking and financial system and the private sector through the use of new technologies, as well as its forms and specific features. In addition, the existing problems of digitalization are analyzed, and practical proposals and recommendations have been developed for their elimination and for improving the system.

Key words: new technologies, commercial bank, digitalization, digital technology, banking activities, profitability indicators.

Аннотация: В статье раскрыты теоретические основы цифровизации деятельности в процессе развития банковско-финансовой системы и частного сектора с использованием новых технологий, а также её формы и специфические особенности. Кроме того, проанализированы существующие проблемы цифровизации, и разработаны практические предложения и рекомендации по их устранению и совершенствованию системы.

Ключевые слова: новые технологии, коммерческий банк, цифровизация, цифровая технология, банковская деятельность, показатели доходности.

KIRISH

Bugungi kunda ko'plab davlatlarning asosiy uzoq muddatli maqsadlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, aholi bandligini kengaytirish va daromadlarini oshirishdan iboratdir. Globallashuv sharoitida ushbu maqsadlarga erishish investitsiyalarni yangi texnika va texnologiyalarga yo'naltirish, boshqaruv, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishni raqamlashtirish asosida tashkil etish orqali amalga oshirilmoqda.

Bank-moliya tizimi va xususiy sektorni rivojlantirishda iqtisodiy islohotlar natijasida korxonalarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Shu jarayonda tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirishni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish hamda ularni samarali boshqarish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shunday ekan, real sektor tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangi ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yishda bank-moliya tizimida raqamlashtirishni jadallashtirish hamda xususiy sektorga ko'maklashish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni¹, 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni², 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori³ hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan muhim vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

So'nggi o'n yillikda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida tijorat banklari tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan kreditlash hajmi qariyb 35 baravarga oshdi. Biroq, taraqqiyot va rivojlanish raqobatning kuchayishi bilan bir qatorda mavjud muammolarni ham yuzaga chiqarib, ularni takomillashtirishni talab etmoqda. Hozirgi kunda tijorat banklari faoliyatida yangi texnologiyalar yordamida raqamlashtirish jarayonlari yetarli darajada samarali yo'lga qo'yilmagan. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimi hamda xususiy sektorni rivojlantirish uchun tijorat banklari faoliyatida ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish, xizmatlarni raqamlashtirishni jadallashtirish va boshqaruvni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyalar mazmuniga turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflar mavjud. Masalan, P. Druker innovatsiyalarni tadbirkorlik faoliyatida yangi biznes yoki xizmatni shakllantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida izohlagan. B. Santo esa innovatsiyalarni ijtimoiy, texnik va iqtisodiy jarayonlarda ilg'or g'oyalarni amaliyotga joriy etish orqali samarali natijaga erishish, shu bilan birga bozorda qo'shimcha qiymat hamda daromad keltiruvchi omil sifatida talqin etadi. Bu yondashuv bank-moliya tizimi va xususiy sektorni rivojlantirish jarayonida innovatsion texnologiyalarning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.⁴

I. Li va Y. Shinlarning ilmiy izlanishlarida bank sohasida texnologiyalar rivoji uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgani, bugungi kunda esa ularning an'anaviy faoliyat usullarini tubdan o'zgartirgani ta'kidlanadi. Ularning fikricha, zamonaviy texnologiyalar banklarning nafaqat xizmat ko'rsatish jarayoniga, balki biznes modeliga ham bevosita ta'sir etib, an'anaviy moliya institutlarining barqaror daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa bank-moliya tizimi va xususiy sektorni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni faol joriy etish zarurligini ko'rsatib beradi.⁵

Polshalik olim M.Zaleska esa, texnologik innovatsiyalarga sarmoya kiritishdan qo'rqmaydigan va o'z tuzilmalarida samarali faoliyat yuritish amaliyotini yo'lga qo'yadigan banklar o'zlarining bozordagi mavqeini saqlab qolishlari va hatto noyob raqobat ustunligini yaratishlari mumkin deb fikr bildiradi.⁶

I.Balabanovning ta'kidlashicha, "Bank innovatsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, yangi bank mahsuloti yoki operatsiya shaklida amalga oshiriladi".⁷

O.Lavrushinning fikricha, "Bank innovatsiyasi sintetik tushuncha bo'lib, yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini, resurs salohiyatini shakllantirish va joylashtirish uchun qulay sharoit yaratish jarayonida daromad olish yoki hamkor mijozlarga foyda olishga yordam berish" deb ta'kidlab o'tgan.⁸

Shuningdek, M.Tangishov tadbirkorlar tijorat banklari tomonidan tezkor, sifatli, arzon va xavfsiz to'lovlarni amalga oshirilishni xohlashlarini inobatga olib tijorat banklari faoliyatida bank mahsulotlari va sifatini oshirishda innovatsion yondashuv asosida tashkil etishni e'tirof etadi.⁹

Mamlakatimizdagi iqtisodchi olimlardan, iqtisod fanlari doktori, professor, N.X.Jumaev "Raqamli iqtisodiyotda IT yordamida tannarxni kamaytirishga, natijada esa, optimallashtirish va samaradorlik oshirishga erishiladi. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi" deb ta'kidlagan.¹⁰

F.O'.Dodiev va D.R.Yusupovalarning fikriga ko'ra, "Respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari o'z faoliyatlarini innovatsion rivojlantirishga qaratayotgan bir vaqtda, moliyaviy texnologiyalarni qo'llagan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. <https://lex.uz/docs/3593541>

4 Piter Ferdinand Druker (Drucker Peter Ferdinand (1909 Avstriya – 2005 SShA)), inisiator vzglyada na menedjment kak na novuyu filosofiyu, teoretik upravleniya. Odin iz samix izvestnix uchenix v oblasti menedjmenta.

5 Manba: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar> - rasmiy sayt ma'lumotlari.

6 Manba: <https://www.livelib.ru/author/233516-mariya-zalesskaya> - rasmiy sayt ma'lumotlari.

7 Manba: <https://www.labyrinth.ru/books/132679/> - rasmiy sayt ma'lumotlari.

8 Manba: <http://www.library.fa.ru/page.asp?id=318> – rasmiy sayt ma'lumotlari.

9 Manba: <https://www.researchgate.net/profile/Nozim> - rasmiy sayt ma'lumotlari.

10 Manba: <https://kitobxon.com/ru/vozuvchi/jumaev> - rasmiy sayt ma'lumotlari.

holda bank xizmatlarini ko‘rsatish talab darajasida emas va banklarning IT-platformalari moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatuvchi maydonchaga to‘liq aylanmagan”.¹¹

O.Melikov esa, “Bank texnologiyalari deganda bank faoliyatini amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlashning eng yangi yondashuvlari, usullari, vositalari yig‘indisi tushuniladi” deya e‘tirof etadi.¹²

Hozirgi kunda yangi texnologiyalar asosida bank faoliyatini raqamlashtirish jarayonlarida ayrim kamchiliklar uchrayib turibdi. Shu bois, bank-moliya tizimi va xususiy sektorni rivojlantirishda raqamlashtirishni jadallashtirishdagi muammolarni aniqlash, xorijiy banklarning kreditlash amaliyotida qo‘llanilayotgan ustun jihatlarni tahlil qilish hamda ularning ilg‘or tajribasini O‘zbekistondagi tijorat banklari faoliyatiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi esa, ushbu jarayonni ilmiy jihatdan o‘rganib, aniq asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning shakli va tuzilmasini tubdan o‘zgartirib, an‘anaviy biznes modellarini transformatsiya qilmoqda hamda alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan bir qatorda butun mamlakatlarning raqobatbardoshligini kuchaytirib, bozorlar imkoniyatlarini kengaytirmoqda. McKinsey Global Institute (2015) hisobotiga ko‘ra, so‘nggi yigirma yillik o‘sishdan so‘ng jahon yalpi ichki mahsulotida tovarlar, xizmatlar va moddiy oqimlarning ulushi 2007 yildagi 53 foizdan 2020 yilga kelib 39 foizgacha kamaygan. Shu bilan birga, 2005–2020 yillar oralig‘ida transchegaraviy ma‘lumotlar almashinuvi hajmi qariyb 45 barobar oshgan. 2020 yildan boshlab esa dunyodagi umumiy savdoning 12 foizga yaqini xalqaro elektron tijorat orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayon bank-moliya tizimi va xususiy sektorni rivojlantirishda raqamlashtirishning muhim omilga aylanganini ko‘rsatadi.

The Boston Consulting Group (2016) ma‘lumotlariga ko‘ra, Xitoyda elektron tijoratning rivojlanish sur‘atlari alohida e‘tiborga loyiqdir. Masalan, mamlakatning elektron tijorat aylanmasi 18 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, iste‘molchilarning internet orqali xaridlariga yo‘naltirilgan mablag‘ hajmi 750 milliard dollarga yetgan. Bu ko‘rsatkich AQSh va Buyuk Britaniya natijalarini birgalikda hisoblagandan ham yuqori. Xitoy Savdo vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2016-yil yakunida xalqaro elektron tijoratdagi ulushi 39,2 foizni tashkil etgan. 2016–2022 yillarda qabul qilingan milliy rivojlantirish dasturiga asosan, mamlakatda elektron tijorat hajmi besh yil davomida 5,8 trillion dollargacha oshishi belgilangan. McKinsey & Company (2016) taxminlariga ko‘ra, 2025-yilga borib raqamli texnologiyalar Xitoy YAIMini 22 foizga, Rossiyada esa 34 foizga oshirishi mumkin. Shu bilan birga, AQShda esa ushbu texnologiyalardan foydalanish xarajatlari 1,6–2,2 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda.¹³

Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotida raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora kuchayib bormoqda. Xususan, bank tizimlari, to‘lov operatsiyalari, kreditlash va boshqa moliyaviy xizmatlarda ularning qo‘llanilishi samaradorlikni oshirmoqda. Moliyaviy xizmatlarni optimallashtiruvchi ushbu ishlanmalar “FinTex” (FinTech) nomi bilan tanilgan. Accenture (2017) hisobotiga ko‘ra, 2017-yilda dunyo miqyosida fintech startaplarga 27,4 milliard dollar investitsiya kiritilgan bo‘lib, bu 2016-yilga nisbatan 18 foiz ko‘pdir. The Forbes FinTech 50 ro‘yxatida qayd etilganidek, AQShdagi 8,5 trillion dollarlik bank sektori uchun fintech kompaniyalari jiddiy raqobatchiga aylangan. Shu jihatdan, moliyaviy texnologiyalar nafaqat yuridik va jismoniy shaxslarning kapital bilan ishlash jarayonini, balki butun moliya bozorining qiyofasini ham o‘zgartirish salohiyatiga ega. Ular ma‘lumotlarni tahlil qilish, birja jarayonlarini nazorat qilish hamda investitsion strategiyalarni belgilash imkoniyatlarini taqdim etadi.¹⁴

Bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida hukumat tomonidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta‘kidlanganidek, taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini chuqur egallash muhim shart hisoblanadi. Chunki raqamli texnologiyalar mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish bilan birga, korrupsiya kabi salbiy illatlarni bartaraf etishda ham samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, davlat rahbari bank tizimining zamonaviy talablardan 10–15 yil orqada qolayotganini ham alohida qayd etgan. Xususan, banklarda raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish, yangi bank mahsulotlarini yaratish va dasturiy ta‘minotlarni modernizatsiya qilish zarurati ta‘kidlangan. Shu maqsadda 2022-yildan boshlab har bir tijorat bankida keng qamrovli transformatsiya dasturlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu esa bank-moliya tizimi va xususiy sektorni rivojlantirishda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

11 Manba: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default> - rasmiy sayt ma‘lumotlari.

12 Manba: https://www.gazeta.ru/tags/person/sergei_melikov - rasmiy sayt ma‘lumotlari.

13 Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnyy-indeks> - rasmiy sayt ma‘lumotlari.

14 Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnyy-indeks> - rasmiy sayt ma‘lumotlari.

1-jadval. 2024-yil uchun I-DESI subindekslari ¹⁵

Mamlakatlar	Raqamli (I-DESI) indeksi	Bog'lanish darajasi	Inson kapitali	Internetdan foyda- lanish	Raqamli texnologiyalar integratsiyasi	Raqamli Davlat Xizmat- lari
Janubiy Koreya	75,2	79,8	75,6	74,5	63,8	83,0
Norvegiya	73,0	75,8	69,1	85,2	65,8	72,5
Islandiya	72,7	72,4	80,2	75,9	75,7	53,7
Yaponiya	68,5	72,5	69,7	73,9	53,0	75,0
Avstraliya	67,8	56,8	80,5	57,8	57,3	88,9
Kanada	67,0	59,6	67,3	66,2	65,4	81,5
AQSh	66,7	71,3	56,2	71,0	61,8	79,0
Yangi Zelandiya	65,8	55,4	79,3	58,2	55,6	81,6
Elning 28davlati	58,9	62,9	58,0	59,7	51,3	63,1
Isroil	55,6	54,3	57,4	58,5	45,2	65,4
Rossiya	47,5	38,9	64,1	48,7	29,8	56,8
Xitoy	45,3	47,8	40,5	45,3	40,7	58,6
Chili	44,9	47,8	42,6	32,9	40,5	61,4
Turkiya	41,5	43,3	53,1	35,9	27,7	43,2
Braziliya	39,7	39,5	39,2	33,8	27,8	62,4
Meksika	43,1	45,5	41,6	30,0	33,7	67,2

1-jadval ko'rsatkichlariga ko'ra, Janubiy Koreya, Norvegiya va Islandiya birinchi uchta likni egallab turibdi. Rossiya esa etakchilik qilayotgan Janubiy Koreya davlatidan 27,7 ko'rsatkichga ortda qolmoqda, ammo Xitoy, Chili, Turkiya, Braziliya va Meksika davlatlaridan yuqori pog'onalardan joy olgan. Umuman, Rossiya bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish jarayonida yuqori potentsialga ega davlat, deb tan olinadi.

2-jadval. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni, 2021-yil holatiga ¹⁶

№	Bank	Yuridik shaxslar vayakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1	Milliy bank	62 280	1 211 092	1 273 372
2	O'zsanoatqurilishbanki	41 353	1 875 494	1 916 847
3	Agrobank	116 871	2 421 695	2 538 566
4	Ipoteka-bank	118 867	1 346 896	1 465 763
5	Mikrokreditbank	64 139	884 654	948 793
6	Xalq banki	86 153	2 337 508	2 423 661
7	Savdogar bank	9 453	69 354	78 807
8	Qishloq qurilish bank	21 565	296 224	317 789
9	Turonbank	23 271	204 874	228 145
10	Hamkorbank	83 431	968 972	1 052 403
11	Asaka bank	29 333	781 382	810 715
12	Ipak Yo'li banki	26 096	593 900	619 996
13	Ziraat bank Uzbekistan	1 776	19 998	21 774
14	Trastbank	26 858	125 591	152 449
15	Aloqabank	17 518	430 367	447 885

15 Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnyy-indeks> - rasmiy sayt ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

16 Manba: <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobot ma'lumotlari.

16	KDB Bank O‘zbekiston	600	37 355	37 955
17	Turkistonbank	3 517	11 704	15 221
18	Soderot bank Toshkent	167	1 312	1 479
19	Universal bank	5 914	80 020	85 934
20	Kapitalbank	27 656	216 008	243 664
21	Ravnaqbank	1 989	22 168	24 157
22	Davr-bank	20 154	64 397	84 551
23	Invest Finance bank	20 852	302 409	323 261
24	Asia Alliance bank	12 482	188 439	200 921
25	Hi-Tech bank	1 570	21 429	22 999
26	Orient Finans bank	18 750	250 374	269 124
27	Madad Invest bank	748	2 281	3 029
28	O‘zagroeksportbank	110	1 242	1 352
29	Poytaxt bank	783	3 993	4 776
30	Tenge bank	325	2 854	3 179
31	TBC bank	0	22 443	22 443
Jami		844 581	14 796 429	15 641 010

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklar kesimida kursatilayotgan masofaviy bank xizmatlarini quyidagi jadval asosida kurishimiz mumkin (2-jadval)

Mamlakatimizda zamonaviy, qulay va keng funksiyalarga ega mobil hamda onlayn ilovalar keng qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan mobil ilovalar jahonning rivojlangan mamlakatlari banklari darajasida bo‘lib, mijozlarga turli bank operatsiyalarini masofadan turib amalga oshirish imkoniyatini bermoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, mijozlarning qariyb 50 foizi masofaviy bank xizmatlaridan foydalanadi, ularning 15 foizi internet-banking, 10 foizi mobil-banking, 32 foizi esa ikki platformani birgalikda qo‘llashni afzal ko‘radi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida bank xizmatlarining yangi texnologiyalar asosida takomillashuvi va kengayishi bank-moliya tizimi hamda xususiy sektorni rivojlantirishning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi.¹⁷

Hozirgi kunda aholi tijorat banklari mobil ilovalari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga mablag‘ o‘tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq va budjet to‘lovlarini amalga oshirish, kommunal xizmatlar uchun hisob-kitob qilish, mikroqarz olish va kreditlarni so‘ndirish, onlayn omonatlar rasmiylashtirish, depozit va kredit hisobvaraqlarini masofadan turib ochish, xalqaro bank kartalari orqali to‘lovlarni amalga oshirish hamda onlayn konversiya operatsiyalaridan keng foydalanmoqda.

Masofaviy bank xizmatlari an‘anaviy usullarga nisbatan xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, raqamli banking imkoniyatlarini kengaytirish, yangi bank mahsulotlarini yaratish hamda filiallar faoliyati bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirish kabi afzalliklarga ega. Shu bilan birga, mamlakatimiz bank-moliya tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi bank sohasining raqobatbardoshligini oshirish va uni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Mazkur strategiyada davlat banklari kengashiga mustaqil a‘zolari jalb qilish, qator banklar faoliyatini xalqaro ekspertlar va tashkilotlar ishtirokida diagnostika qilish, banklar ustav kapitalidagi davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish kabi muhim chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, bank xodimlari samaradorligini baholash uchun KPI tizimini joriy etish, loyihalar fabrikasi konsepsiyasini ishlab chiqish, FinTech kompaniyalar faoliyatini rivojlantirish hamda korporativ boshqaruvning xalqaro tajribasini tatbiq etgan holda zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirish rejalashtirilgan. Bu chora-tadbirlar bank-moliya tizimi va xususiy sektorni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar natijalariga tayangan holda, bank-moliya tizimi va xususiy sektorni rivojlantirishda yangi texnologiyalar yordamida raqamlashtirish jarayonini faollashtirish yuzasidan quyidagi umumlashtirilgan xulosa va takliflarni ilgari surish mumkin:

¹⁷ Manba: <https://cbu.uz>

Zamonaviy interaktiv bank xizmatlari (depozit, kredit, valyuta, trast va boshqalar) turlarini kengaytirish, ular uchun yangi dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish, shuningdek, axborot va mobil texnologiyalardan samarali foydalanish imkonini beruvchi maxsus elektron bazalarni yaratish va rivojlantirish;

“Bank–mijoz” etika kodeksini amaliyotga joriy etish, shuningdek, “Ma'lumotlar va mablag'lar xavfsizligi siyosati”, “Mijozga moslashish siyosati” va “Bank mahsuloti jozibadorligi” kabi tamoyillarni mustahkamlash;

Tijorat banklari daromadlarining ma'lum qismini yangi texnologiyalarni rivojlantirishga, innovatsion ishlanmalarga va ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirish;

Elektron raqamli imzo bo'yicha huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish, uning xavfsizligini oshirish maqsadida zamonaviy operatsion tizimlar, internet-brauzerlar va antivirus dasturlaridan keng foydalanish.

Umuman olganda, ushbu takliflarni hayotga tatbiq etish hamda bank faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy qilish orqali yangi bank mahsulotlari yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa tijorat banklarining rentabellik darajasini oshirish bilan birga, bank-moliya tizimi va xususiy sektorning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. <https://lex.uz/docs/3593541>.
4. Piter Ferdinand Druker (Drucker Peter Ferdinand (1909 Avstriya – 2005 SShA)), inisiator vzglyada na menedjment kak na novuyu filosofiyu, teoretik upravleniya. Odin iz samix izvestnix uchenix v oblasti menedjmenta.
5. Manba: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar> - rasmiy sayt ma'lumotlari.
6. Manba: <https://www.livelib.ru/author/233516-mariya-zalesskaya> - rasmiy sayt ma'lumotlari.
7. Manba: <https://www.labirint.ru/books/132679/> - rasmiy sayt ma'lumotlari.
8. Manba: <http://www.library.fa.ru/page.asp?id=318> – rasmiy sayt ma'lumotlari.
9. Manba: <https://www.researchgate.net/profile/Nozim> - rasmiy sayt ma'lumotlari.
10. Manba: <https://kitobxon.com/ru/yzuvchi/jumaev> - rasmiy sayt ma'lumotlari.
11. Manba: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default> - rasmiy sayt ma'lumotlari.
12. Manba: https://www.gazeta.ru/tags/person/sergei_melikov - rasmiy sayt ma'lumotlari.
13. Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnyy-indeks> - rasmiy sayt ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
14. Manba: <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobot ma'lumotlari.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI